

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

AMINOVA NARGIZA ISTAMOVNA

**G‘ARB VA SHARQ BADIY ADABIYOTIDA INSON MA‘NAVIY
DUNYOSI TALQINI**

**(E.Xemingueyning “Chol va dengiz” hamda Sh.Xolmirzayevning “Ko‘k
dengiz” asarlari qiyosiy tahlili misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

Aminova Nargiza Istamovna

G‘arb va Sharq badiiy adabiyotida inson ma‘naviy dunyosi talqini
(E.Xemingueyning “Chol va dengiz” hamda Sh.Xolmirzayevning “Ko‘k dengiz”
asarlari qiyosiy tahlili misolida)..... 3

Аминова Наргиза Истамовна

Интерпретация духовного мира человека в западной и восточной
художественной литературе (на примере сравнительного анализа
произведений Э. Хемингуэя «Старик и море» и Ш. Холмирзаева «Синее
море») 25

Aminova Nargiza Istamovna

Depiction of human spiritual world in Western and Eastern literature (on the base
of the comparative analysis of E. Hemingway’s “The Old Man and the Sea” and
Sh. Kholmiraev’s “The Blue Sea”) 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FIL.19.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

AMINOVA NARGIZA ISTAMOVNA

**G‘ARB VA SHARQ BADIY ADABIYOTIDA INSON MA‘NAVIY
DUNYOSI TALQINI**

**(E.Xemingueyning “Chol va dengiz” hamda Sh.Xolmirzayevning “Ko‘k
dengiz” asarlari qiyosiy tahlili misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Fil5632 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xolikov Bahodir Alikulovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), professor v.b.

Rasmiy opponenlar:

Hasanov Shavkat Ahadovich
filologiya fanlari doktori, professor

Adilova Shaxnoza Rahimovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘hasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

Sh.S.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, akademik

Q.U.Pardaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

D.R.Yusupova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon XX asr adabiyotshunosligida dunyo tanigan yirik mutafakkir yozuvchilarning ijodiy merosini chuqur va ilmiy-tahliliy o'rganish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ammo ushbu ishlarda turli millat va tillar guruhiga mansub adiblarning asarlarini mavzu, g'oyaviy mazmun va badiiyat qonuniyatlari bo'yicha qiyosiy-tipologik o'rganish to'la amalga oshirilmadi. XXI asr birinchi choragida jahoniy shuhratga ega adiblar asarlarini zamonaviy fan ilmiy-nazariy tamoyillari asosida qiyosiy o'rganish adabiyotshunoslik, adabiyot nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik – komparativistika va tarjimashunoslik sohalari rivojlanishining muhim omillari sifatida qaraldi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy ko'pmillatli badiiy adabiyot muammolarini o'rganishning ilmiy va amaliy xulosalariga asoslanish zaruratini paydo qiladi.

Dunyo adabiyotshunosligida zamonaviy fan adabiy-estetik tamoyillari asosida badiiy prozaning rivojlanish xususiyatlari va ommalashuvi sabablarini, tarixiy va milliy-madaniy an'analari davomiyligini, lingvokultural va uslub xususiyatlarini o'rganish bilan bog'liq muammolar hamon dolzarblik kasb etmoqda. Tadqiqotchilar e'tiborini tortayotgan muhim muammolardan yana biri – zamonaviy prozadagi an'anaviylik va vorisiylik mushtarakligini va muallif uslubi individualligini aniqlash masalalaridir. Turkiy tilli ko'p millatli badiiy adabiyot bugungi kunda o'z milliy adabiy an'analari va dunyo adabiyotining xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan holda jamiyat ijtimoiy muammolarini ham talqin etmoqda. Bu bevosita uning yangilanish davrini boshidan kechirayotganligiga dalildir. Bu esa, xususan, Sharq va G'arb xalqlari ijtimoiy tafakkuri o'z aksini topgan adabiyot namunalarini solishtirib qiyosan o'rganish va muhim ilmiy-nazariy umumlash, xulosalarga kelish zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Vatanimiz istiqloli yillari badiiy adabiyotida o'tgan XX asr siyosiy-ijtimoiy muammolari ifoda etilgan asarlar adabiy tanqidchiligida turli qarashlar namoyon bo'ldi. Bu hodisa, xususan, XX asr romanchiligining taniqli vakili amerikalik adib Ernest Xeminguey va mashhur o'zbek adibi Shukur Xolmirzayev asarlari qiyosiy tadqiqotchiligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Adiblarning badiiy-falsafiy asarlari shu paytga qadar ancha chuqur o'rganilganligi ma'lum. Ammo adiblarning jamiyat muammolarini ijtimoiy-falsafiy talqin etish mahoratlari va bu sohadagi uslubiy o'ziga xosliklari tadqiqotlar doirasidan tashqarida qolmoqda. Adabiyotshunoslik fani oldida turgan aynan shu ilmiy g'oya tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning muhimligi va ahamiyati ham shu bilan belgilanadi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF 60-son "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ 5117-son “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida, shuningdek, mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining: I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. XX asr adabiyotida insonning ichki kechinmalari va ruhiy olamini tasvirlash jarayoni yozuvchilardan katta badiiy mahorat va hayotiy tajribani talab qilgan. Shu bois, yirik adiblar inson shaxsiyati va ruhiyatini turli badiiy uslub va nuqtai nazarlarda yoritishga harakat qilib, mazmunan teran va shaklan original asarlar yaratgan. Bu holat ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda tahlil etilgan va nazariy jihatdan asoslab berilgan¹. Inson ma’naviy, ruhiy dunyosi va uning tahlili muammosi chet el olimlaridan I.V. Straxov², A.N. Iezuitov³, L.Y. Ginzburg⁴, V.V.Kompaneyts⁵, M.B.Xrapchenko⁶, A.B.Esin⁷, M.M.Baxtin⁸, R.Uellek va O.Uorren⁹, V.V.Vinogradov¹⁰, A.V.Kovalev¹¹ kabi amerika va rus olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbek adabiyotshunosligida ham so‘nggi yillarda badiiy kontekstda inson ruhiyati talqiniga bag‘ishlangan salmoqli tadqiqotlar amalga oshirildi.¹²

Badiiy asarlarda insonning ichki kechinmalari, ma’naviy qarashlari, e’tiqodi, ruhiyati tasvirlari psixologizmning bosh masalasi hisoblanadi va psixologizm muammosi bo‘yicha o‘zbek adabiyotshunosligida ham muayyan tajribalar to‘plangan, nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotshunos H.Umurov¹³ badiiy

¹ Edell L. The Modern Psychological novel. – New York: Grosset and Dunlap, 1964. – P. 222; Лазуткина О. Синтез литературного портрета и “принципа айсберга” в произведениях Э.Хемингуэя. – Международный научно-исследовательский журнал, №5 (119), часть 4, Екатеринбург, 2022. – С. 96–99.

² Страхов И. Психологический анализ в литературном творчестве: пособ. для студ. /В 5 ч./ – Саратов: Изд. Саратовского университета, 1973. – С. 14.

³ Иезуитов А. Проблемы психологизма в эстетике /литературе // Проблемы психологизма в советской литературе. – Ленинград. 1970. – С. 18.

⁴ Гинзбург Л. О психологической прозе. – Ленинград. 1971. – С. 300.

⁵ Компанец В. Художественный психологизм в советской литературе. (1920-е годы) – Ленинград: Наука, 1980. – С. 47.

⁶ Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М.: Наука, 1970. – С. 266.

⁷ Есин А. Психологизм русской классической литературы. – М., 1988.

⁸ Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Наука, 1979. – С. 85.

⁹ Wellek R. Warren A. Theory of literature. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1949. – 403 p.

¹⁰ Виноградов В. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – С. 484.

¹¹ Ковалев А. Психология литературного творчества. – Ленинград: ЛГУ, 1960. – С. 214.

¹² Normatov U., Hamdam U. Duniyoni yangicha ko‘rish ehtiyoji. Jahon adabiyoti, № 12, 2002. – B. 142–166; Qobilova N. Jek London va Abdulla Qahhor ijodida badiiy psixologizm. Filol. fan. b. fals. dok. ... (PhD) diss. avtoref. – Buxoro, 2020; Muhammadiyev A. Qahramon ruhiyati va uning asarda tasvirlanishiga doir. – Research Focus, Volume 1, Issue 1, 2022. – P. 259–264.

¹³ Умuroв Х. Бадий психологизм ва хозирги замон ўзбек романчилиги. – Тошкент: Фан, 1983.

psixologizmni milliy romanchilik doirasida o'rganish bo'lsa, A.Xolmurodov¹⁴ esa qissachilikda psixologizmning aks etishini o'rganishgan. Bundan tashqari, XX asr oxirida va undan keyin yaratilgan asarlarda insonning ma'naviyati, ruhiyati badiiy talqinini o'rganish ilmiy-adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otgan, uni I.Sultonov¹⁵, M.Qo'shjonov¹⁶, O.Sharafiddinov¹⁷, S.Mirvaliyev¹⁸, U.Normatov¹⁹, H.Umurov²⁰, I.Mirzayev²¹, B.Nazarov²², N.Karimov²³, T.Jo'rayev²⁴, D.To'rayev²⁵, Z.Pardayeva²⁶ kabi adabiyotshunoslar salmoqli tadqiq etishgan. Adabiyotshunos Bahodir Karim "Ruhiyat alifbosi" kitobida nasriy asarlarni tahlil qilar ekan, o'zbek yozuvchilarining qahramonlar ruhiyati, ma'naviy dunyosini badiiy talqin qilishiga alohida ahamiyat bergan²⁷. Bundan tashqari, inson ma'naviy olamining badiiy adabiyotdagi talqini F.Burxonova²⁸, P.Kenjayeveva²⁹, A.Rashidov³⁰, Sh.Doniyorova³¹ monografik tadqiqotlarida, ko'plab maqolalarida tahlilga tortilgan bo'lsa-da, ammo inson ruhiy olami ikki xil adabiyotda talqin qilinishi, xususan, Sharq va G'arb badiiy adabiyoti asarlarida qiyosiy tahlil qilinib, maxsus o'rganilmagan. Inson ma'naviy dunyosining Sharq va G'arb badiiy adabiyotida badiiy talqin qilinishi monografik tarzda ilk bor maxsus tadqiq etilmoqda.

O'rganishlar natijasida insonning ruhiy olami mavzusining aks ettirilishini tadqiq qiluvchi ishlar turli aspektda hamda rakursda amalga oshirilganiga, ammo XX asrning turli davrlarida yashab, ijod qilgan G'arb va Sharq adabiyoti vakillari Ernest Xeminguey va Shukur Xolmirzayevning asarlarida inson ma'naviy dunyosining badiiy talqini qiyosiy o'rganilishiga oid tizimli tadqiqot mavjud emasligining guvohi bo'ldik.

Mazkur dissertatsiyada Ernest Xeminguey hamda Shukur Xolmirzayevning insonning ma'naviy dunyosini tasvirlashi, qahramonlarining ichki olamini badiiy talqin qilishining hamohang va farqli uslubi, ijodkorlarning inson kechinmalarini

¹⁴ Холмуродов А. Одил Ёқубов романларида психологизм: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1991. – 53 б.

¹⁵ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б. 408.

¹⁶ Қўшжонов М. Ўзбек романчилигининг ривожланиш босқичлари ва жанр хусусиятлари // Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 299–382.

¹⁷ Шарафиддинов О. Ҳаёт билан ҳамнафас. – Тошкент: Ёш гвардия, 1983.

¹⁸ Мирвалиев С. Ўзбек романи. – Тошкент: Фан, 1969.

¹⁹ Норматов У. Насримиз тамойиллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1978; Шу муаллиф. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000.

²⁰ Умуров Х. Бадий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.

²¹ Мирзаев И. Абдулла Қодирийнинг ижодий эволюцияси. – Тошкент: Фан, 1977.

²² Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1980.

²³ Каримов Н. Ойбек. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – Б. 44.

²⁴ Жўраев Т. Онг оқими ва тасвирийлик: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1994. – 58 б.

²⁵ Тўраев Д. Ҳозирги ўзбек романларида бадий тафаккур ва маҳорат муаммоси (60–80-йиллар). Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1994.

²⁶ Пардаева З. Ҳозирги ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2003.

²⁷ Карим Б. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом, 2018. – 364 б.

²⁸ Бурхонова Ф. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм (Назар Эшонкул ва Улуғбек Ҳамдам ижоди мисолида). Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2019. – 53 б.

²⁹ Kenjayeveva P. Hozirgi o'zbek hikoyalarida qahramon ruhiyatini tasvirlash tamoyillari. Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2008. – 145 b.

³⁰ Рашидов А. Проблема духовно нравственного становления героя в узбекской повест о рабочем класс. Дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 155 с.

³¹ Дониёрова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида миллий рух ва қаҳрамон муаммоси. Филол. фан. док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2012.

ifodalashda badiiy mahorati kabi masalalar ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganilishi ko'zda tutildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Til, madaniyat, tarjima va muloqot muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi XX asr badiiy adabiyotida adabiy izdoshlik, vorisiylik ko'rinishlari asosida amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey va o'zbek adibi Shukur Xolmirzayevlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini, ularning o'z jamiyatlari ma'naviy tafakkuri sog'lomlashuviga qo'shgan hissalarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek va ingliz adiblari ijodida inson ma'naviy olami badiiy talqinining o'ziga xos jihatlarini aniqlash;

dengizlar va chollar obrazlari talqinida adiblar uslubidagi g'oyaviy mushtaraklik va o'ziga xoslik xususiyatlarini ko'rsatish;

qissa va hikoyada badiiy til xususiyatlari qiyosiy tahlilini amalga oshirish;

adabiy aloqalardagi vorisiylik, izdoshlik masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida amerikalik yozuvchi Ernest Xemingueyning "Chol va dengiz" qissasi hamda taniqli o'zbek adibi Shukur Xolmirzayevning "Ko'k dengiz" hikoyasi tanlandi.

Tadqiqotning predmetini E.Xeminguey va Sh.Xolmirzayev adabiy merosining o'rganilishi, adiblar asarlarining adabiy aloqalar bardavomligi va rivoji uchun ahamiyati, ijtimoiy muammolar badiiy talqinlarining davr ma'naviy hayoti uchun zarurati masalalarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va matn tahlili usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

XX asr amerika va o'zbek badiiy adabiyotida namoyon bo'lgan o'zaro uyg'un g'oyaviy-badiiy tamoyillar ikki mashhur yozuvchi Ernest Xeminguey va Shukur Xolmirzayev asarlari asosida aniqlangan;

amerika va o'zbek prozasida adabiy izdoshlik, vorisiylik hodisalariga xos jihatlar aniq dalillar vositasida ochib berilgan;

Ernest Xeminguey hamda Shukur Xolmirzayev asarlarida inson ma'naviy dunyosining badiiy talqini orasidagi umumiylik va tafovutlar tizimli ravishda dalillangan;

asarlarning badiiy tili, ichki monologlar, stilistik vositalar va individual uslub xususiyatlari tahlil qilinib, Xeminguey va Xolmirzayev uslublarining o'ziga xos jihatlar hamda ularning ma'naviy mazmun ifodasidagi roli aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Amerika va o'zbek badiiy adabiyotidagi tarjima asarlar, o'zbek va Amerika adabiyotida mavjud adabiy an'analar va komparativistika sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tasnifi, mazkur asarlar nashrlari masalasiga doir yangi ilmiy ma'lumotlardan qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, o'zbek adiblari

asarlarning xorijda o'rganilishi bilan bog'liq tadqiqotlar va metodik qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkinligi dalillangan;

“Chol va dengiz” va “Ko'k dengiz” asarlari yuzasidan mahalliy va xorijiy mamlakatlar olimlarining ilmiy qarashlari tahlil qilingan;

XX asr xorij qissachilik uslubining o'zbek adabiyotiga ta'siri tadqiqi bugungi kun yoshlari ilmiy dunyoqarashi va badiiy tafakkurini yanada rivojlantirishga xizmat qilishi mumkinligi aniq misollar tahlili vositasida ochib berilgan;

xorij va o'zbek adiblari asarlarida adabiy ta'sir va izdoshlik, bu an'analar bo'yicha to'plangan materiallar, qo'yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashtirilgan fikrlar qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, ingliz va o'zbek adabiyoti tarixi uchun muhim ilmiy ma'lumot berishi, bu sohada yangi tadqiqotlar yaratishda manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot yuzasidan chiqarilgan xulosalarning XX asr tarixiy-badiiy voqeligi hamda ilmiy kuzatuvning tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik va matn tahlili usullariga asoslanganligi, shuningdek, muammoning aniq qo'yilganligi, tadqiqot jarayonida birlamchi manbalardan foydalanilganligi, tadqiqot natijalari ilmiy-amaliy anjumanlardagi ma'ruzalarda, O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan tavsiya qilingan jurnallardagi nashrlarda, xorijiy nashrlarda bayon qilinganligi ularning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xulosalardan ingliz va o'zbek adabiyoti mutaxassislari, tarjimashunos, tilshunos, adabiyotshunos va tarixchilar amaliy va ilmiy izlanishlarida manba sifatida foydalanishi, dissertatsiyada keltirilgan fikr-mulohaza va takliflar komparativistika sohasida olib boriladigan tadqiqotlar uchun, ayniqsa, xorijda o'zbek adiblari ijodini o'rganish, o'zbek va ingliz olimlari tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy asarlar ahamiyatini belgilashda manba bo'lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilmiy materiallardan qiyosiy adabiyotshunoslik va matnshunoslik asoslari, tarjima nazariyasi va amaliyoti uchun dasturlar, darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, maxsus kurs va seminar mashg'ulotlarini tashkil qilishda material va uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. G'arb va Sharq badiiy adabiyotida inson ma'naviy dunyosi talqini bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida o'zbek adabiyotida ijod qilgan yozuvchilar qatorida Shukur Xolmirzayevning asarlaridagi g'oyaviy-badiiy tamoyillar, inson ma'naviy dunyosi tasvirining o'ziga xosliklariga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan F3-201912258-raqamli “O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 28-martdagi 194/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, XX asr o'zbek adabiyoti hikoyanavislari haqidagi

ma'lumotlar Shukur Xolmirzayev asarlari tahlili misolida boyitilganligiga oid ilmiy materiallardan elektron platforma materiallarini tayyorlashda foydalanilgan;

Ernest Xeminguey hamda Shukur Xolmirzayev asarlarida inson ma'naviy dunyosining badiiy talqini orasidagi umumiylik va tafovutlar haqidagi ma'lumotlardan, amerika va o'zbek adabiyoti namoyondalari asarlari tahliliga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022–2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta'lim bo'yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 1-apreldagi 201/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ernest Xeminguey va Shukur Xolmirzayev ijodida inson ma'naviy dunyosi tasviridagi umumiylik, tafovutlar, yozuvchilar badiiy uslubining o'ziga xosliklari kabilarga oid ilmiy ma'lumotlar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

amerika va o'zbek prozasida adabiy izdoshlik, vorisilik hodisalariga xos jihatlarni aniq dalillar vositasida o'rganishga oid ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan F3-201912258-raqamli “O'zbek adabiyotining ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 28-martdagi 194/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada, amerika va o'zbek adabiyotida adabiy izdoshlik, vorisilik hodisalari, amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey ijodining o'zbek adabiyotida o'rganilishi, o'zbek yozuvchilari ijodiga bo'lgan ta'siri kabilarga oid ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarini boyitgan;

asarlarning badiiy tili, ichki monologlar, stilistik vositalar va individual uslub xususiyatlari tahlil qilinib, Xeminguey va Xolmirzayev uslublarining o'ziga xos jihatlari hamda ularning ma'naviy mazmun ifodasidagi rolga oid xulosalardan 2024-yilda Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Samarqand!” nomli ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasi davlat muassasasining 2024-yil 27-fevraldagi 01-07/30-son ma'lumotnomasi). Natijada, badiiy adabiyotda inson ma'naviy dunyosini talqin qilishda ikki adabiyot vakillarining uslubiy mahorati taqqoslanib, umumiy xulosalarga kelingan va ko'rsatuv uchun tayyorlangan materiallarning mazmunini chuqurlashishiga, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi. Dissertatsiya natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 5 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi hamda uning xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan.

Dissertatsiyaning “**O‘zbek va ingliz adiblari ijodida inson ma’naviy olami tasviri**” deb nomlangan birinchi bobining § 1.1.da “*Shukur Xolmirzayev hikoyalarida inson ma’naviy dunyosining yoritilishi*” masalasi ko‘rib chiqilgan. XX asrning 60-yillaridan o‘zbek adabiyoti ravnaqiga katta hissa qo‘shgan va XXI asrda ham serunum ijod qilib tanilgan Shukur Xolmirzayevning o‘ziga xos uslubi, hayot haqiqatini obyektiv va teran badiiy ifoda etish mahorati, hikoyalarida inson ichki dunyosi mavzusining qo‘yilishi, ko‘lami, yoritilishiga oid masalalar yoritilgan.

Shukur Xolmirzayev o‘zining ellik yillik ijodiy faoliyatida qissa, roman, drama, esse janrlarida samarali ijod qilgan bo‘lishiga qaramay, u o‘zini birinchi navbatda hikoyanavis deb bilar edi va umr bo‘yi mana shu badiiy shaklga sodiq qoldi. O‘zbek hikoyachiligini jahon adabiyoti durdonalari darajasiga olib chiqish uchun juda ko‘p izlandi, kichik epik shakl imkoniyatlarini yanada kengaytirish borasida muntazam ish olib bordi. Butun umrini badiiy ijodga bag‘ishlagan adibning orzulari, dard-u iztiroblari, armonlari, nafratlari-yu, o‘zidan, idealidan o‘tgan sifatlar uning ijod namunalarida aks etadi. Shukur Xolmirzayevning sho‘ro tuzumi davom etayotgan davrda yaratilgan hikoyalarida o‘zbek kishisining ruhiyati, o‘y-kechinmalari, ta’sirlanish yo‘sini ifodalangan. Uni insonning ichki dunyosi va olam bilan o‘zaro munosabati masalasi doim o‘ylantirgan. Shukur Xolmirzayev o‘zining samimiy va haqqoniy tasvir uslubi bilan o‘zbek adabiyotidan mustahkam o‘rin egallagan va kelajak avlod kamolotiga mushohada qilishga chorlovchi asarlari bilan beqiyos hissasi qo‘shgan buyuk ijodkordir. “Ko‘k dengiz” hikoyasi esa insonning ma’naviyati va o‘zligi uning hayotida eng unutilmas, muhim, ajralmas jihat ekanligini tasvirlovchi tahsinga sazovor ijod namunasidir.

Sh.Xolmirzayev qissalarida qahramonlarning ishonchli chiqishi, sun‘iylik tug‘dirmasligi uchun tasvirda talabchanlikni aslo unutmaydi³².

Shukur Xolmirzayevning badiiy uslubi, asarlarining o‘ziga xos jihatlaridan tashqari, ushbu bobimizda § 1.2. “*O‘zbek adabiyotshunosligida E.Xeminguey ijodiy merosida inson ma’naviy dunyosi masalasiga munosabat*” deb

³² Hakimova D. Shukur Xolmirzayev qissalarida davr va shaxs ifodasi // Filologiyaning umumnazariy masalalari. – Toshkent, 2020. – №2. – B. 342.

sarlavhalangan. Ushbu faslda o‘zbek adabiyotshunosligida buyuk Amerika yozuvchisi Ernest Xeminguey ijodiy merosiga bo‘lgan munosabat masalasi o‘rganilgan. O‘zbek adabiyotida Ernest Xemingueyning ijodini katta qiziqish bilan o‘rganishgan. Adabiyotshunoslarimizdan Nazar Eshonqul, Muhammadjon Xolbekov, Olim Otaxon, Qandilat Yusupova, Muattar Dehqonova Ernest Xeminguey ijodini o‘rganishgan. Xususan, Nazar Eshonqul Xemingueyning ijodidan ilhomlanib, hatto u haqida esselar yozgan. Bu esselarni Nazar Eshonqul “Mendan “men”gacha” hamda “Ijod falsafasi” kabi to‘plamlariga ham kiritgan. Xemingueyning yozganlari uning o‘zining his etganlari, ko‘rgan-kechirganlari, hayot va olam haqidagi qarashlarining ifodasi edi. U ko‘rmagan, o‘zi guvoh bo‘lmagan voqealar, hodisalar haqida yoza olmas edi. Barcha asarlarida bitta narsani – o‘zi ko‘rgan-kechirganlari, guvoh bo‘lganlarini, o‘z ko‘nglining tarixini, o‘zining shaxs sifatidagi botiniy tarjimai holini tasvirlab berar edi. Shu sababli Ernest Xeminguey asarlari, aslida, adibning badiiylashgan avtobiografiyasidir, deb hisoblardi Nazar Eshonqul.

Xemingueyning asarlari XX asr boshlari va o‘rtalaridagi jahonda sodir bo‘layotgan urushlarning insoniyatga, uning shaxsiga, ruhiyatiga ta’siri, urush shavqatsizliklari, insonlarning o‘zini qurbon qilishi, sadoqat, jasorat, sabr, kurash, muhabbat kabi dolzarb mavzularni qamrab olishi sababli ham jahon kitobxonlari uchun, keyinchalik esa, o‘zbek o‘quvchilari uchun, ayniqsa, urushdan keyingi o‘tish davrida, shuningdek, istiqloq yillarida insoniyatga dalda bo‘la oluvchi bo‘lganligi, ma’nan tarbiyaviy ahamiyatga egaligi sababli ham o‘rganilishi zarur edi. Xeminguey asarlarini tarjima qilish ishlari o‘zbek tilshunosligi, adabiyotidagi tarixiy o‘zgarishlar natijasida boshlanib ketgandi. 60–70-yillarda o‘zbek tarjimachilik ishlari yangi bosqichga ko‘tarilishi va geografik jihatdan yanada keng jabhalarni egallashi natijasida adabiyotga ko‘plab iste’dodli yosh tarjimonlar kirib kelishdi. O‘zbek adabiyoti iste’dodli so‘z ustalari tomonidan yaratilgan asarlar bilan boyishni boshladi va ular insoniyatning ma’naviy boyligiga aylandi. Natijada, o‘zbek o‘quvchilari amerika adabiyotining XX asr buyuk yozuvchisi Ernest Xemingueyning ijodi bilan tanishish imkoniga ega bo‘la boshladi.

60-yillarda o‘zbek adabiyotida inson kamoloti tasvirlari birinchi o‘ringa chiqqandi va shu sababli buyuk amerikalik yozuvchi Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” asari o‘zbek tilida paydo bo‘lishi bejiz emas edi.

Asar 1963-yilda Ibrohim G‘afurov tarjimasida nashr etilgan edi. 1970-yillarda yer yuzining ko‘plab joylarida urush alangasini yoquvchi turli guruhlar paydo bo‘lgandi. Bunga javoban, adabiyot urushga qarshi ruhdagi asarlar tarjimasiga ko‘proq e’tibor qarata boshladi. Shunday ruhdagi asarlarni Xeminguey ijodida juda ko‘p uchratamiz va o‘sha davr uchun uning asarlari juda dolzarb va kerakli edi. Ammo o‘tgan asrning 80-yillari boshlarida ham ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimalar yo‘q bo‘lib, o‘zbek o‘quvchilari chet el yozuvchilari asarlari bilan bilvosita rus tili orqali tanishishardi. Rossiyalik xemingueyshunoslar yozuvchi asarlarining rus tilidagi tarjimalarini puxta tahlil qilib, yozuvchining insonparvarlik g‘oyalarining buyukligini, iste’dod va yuksak badiiy saviyasini ochib berishdi.

O‘zbek modernizmida samarali ijod qilgan yozuvchilarning ijodiga Ernest Xemingueyning ta’siri juda katta bo‘lgan, qaysidir ma’noda adiblarimiz uning ishlarini o‘rganib, o‘zlari ham modernizm janrida ijod qila boshlashgan. Nabijon Boqiy, Orif Tolib, Alisher Shoyimov kabi adabiyotshunoslarimiz esa Xemingueyning juda ko‘plab bergan intervyularini, yosh ijodkorlar bilan bo‘lgan suhbatlarini rus tilidan tarjima qilishgan va ularni “Yoshlik”, “Kitob dunyosi” kabi jurnallarda chop ettirishgan. Ushbu tarjimalar Xemingueyning adabiyotga oid va o‘sha davrning turli ijodkorlari haqidagi asl fikrlari, zamonasi yoshlariga bildirgan munosabatlari kabi qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichida jamlaganligi bilan ham ahamiyatli hisoblanadi hamda ushbu tarjimalar orqali o‘zbek o‘quvchisi amerika yozuvchisi haqida yanada chuqurroq ma’lumotga ega bo‘lishga erishadi, uni yaqindan taniydi, uni anglay oladi.

“Ernest Xeminguey ijodida inson ma’naviy dunyosi tasvirining g‘oyaviy-badiiy va estetik tamoyillari” deb nomlanuvchi faslda esa yozuvchining yozish uslubi, asarlaridagi bosh g‘oyalar, estetik tamoyillari kabi masalalar, shuningdek, asarlari tahlili, inson ma’naviy dunyosining ularda badiiy talqin qilinishining o‘ziga xos jihatlari tadqiq qilingan.

Sodda va qisqa badiiy talqin hikoyalar yozishni boshlagan Xemingueyning o‘ziga xos yozish uslubining muhim jihati edi. Yozuvchi sifatida u o‘quvchilar hayotiga taalluqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan mashhur mavzularga e’tibor qaratishga qaror qildi. Uning ijodida sevgi, yo‘qotish, tabiat, urush kabi mavzular talqinini bosh g‘oyaviy-badiiy tamoyil sifatida kuzatishimiz mumkin. Uning asarlarida adib hayotining bir parchasi aks etgan. “Aysberg” badiiy tasvir usuli aslida Ernest Xeminguey tomonidan yaratilgan bo‘lib, bu adibning yoshlik davrlaridagi jurnalistlik faoliyati bilan bog‘liq. Yosh jurnalist bo‘lib ishlagan kezlarda, Xeminguey gazeta xabarlarida qisqa matn yoki sharh bilan e’tiborini, asosan, tezkor voqealarga qaratishi kerak bo‘lgan. U qisqa hikoyalar yozuvchisiga aylanganida ham ushbu minimalistik uslubni saqlab qoldi va tashqi tasvir elementlariga e’tibor qaratdi. Xeminguey hikoyaning chuqur ma’nosi yuzaki ko‘rinmasligi kerak, balki bilvosita porlashi kerak, deb hisoblardi. Jekson Benson kabi tanqidchilarning ta’kidlashicha, “aysberg” usuli Xeminguey yozish uslubining o‘ziga xos ravshanligi bilan birga u yaratgan personajlarni o‘zidan uzoqlashtirishga, o‘zini tanitib qo‘ymaslikka xizmat qilgan. U o‘quvchi istasa istamasa ham, satr orasini o‘qishga majburlashning ustasi edi.

Ernest Xeminguey hayoti davomida uch urushni guvohi bo‘lgan insondir. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari, Ispaniyadagi fuqarolar urushidagi uning unutilmas hayotiy tajribasi, guvohi bo‘lganlari, jurnalist sifatida ham boshidan kechirganlari unga kelgusidagi yozuvchilik faoliyatida ishtirok etmay qolmaydi. Hayotiy tajribalari, shuningdek, dengizchilik, ovchilik, merganlik kabi qiziqishlari uning asarlariga ko‘chadi, natijada tabiiy va ishonarli badiiy tasvir yuzaga keladi.

Xeminguey badiiy adabiyotda haqiqatni yozishning ahamiyati haqida juda ko‘p bora ta’kidlaganki, oqibatda adabiy tanqidchilik haqiqatni yozish yozuvchining asosiy tamoyili sifatida tan olishiga olib keldi. Ammo uni nafaqat

aniq voqealar talqini qiziqtirardi, uni harakatlarning “asl emotsiyasi”ni yetkazib berishdek yozuvchilarning vazifasi o‘ylantirardi.

“Yozuvchining ishi – haqiqatni gapirish. Uning haqiqatga bo‘lgan sadoqati shunchalik kuchli bo‘lishi kerakki, tajribasiga asoslangan uning ijodi mahsuli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ehtimollarni ifodalamasin, balki ishonarli voqealarni aks ettirsin”.³³ Uning haqiqatni ifodalashga bo‘lgan kuchli ishtiyoqi, shubhasiz, birinchi jahon urushidan so‘ng tilga qo‘yilgan cheklovlarning natijasi edi.

Yozuvchi sifatida u o‘quvchilar hayotiga taalluqli bo‘lishi mumkin bo‘lgan mashhur mavzularga e‘tibor qaratishga qaror qildi. Uning ijodida sevgi, yo‘qotish, tabiat, urush kabi mavzular talqinini bosh g‘oyaviy-badiiy tamoyil sifatida kuzatishimiz mumkin.

Xemingueyni juda ochiq va aniq, maqsadli yozuvchi sifatida e‘tirof etishgan. U Amerikada tug‘ilgan bo‘lsa-da, butun dunyo adabiy maydonlarigacha iste’dodi bilan kirib borgan ijodkor edi. Xemingueyga xos bo‘lgan ishora qilish va sukut saqlash usullari rang-barangdir. Uning uslubida yangi personajning paydo bo‘lish ehtimoli haqidagi yashirin ogohlantirish, sokinlikni to‘zg‘itib yuboradigan voqealar keyingi rivoji haqidagi eslatma parchalar va hatto, qahramon bilan birga yechishni kitobxoniga muallif tomonidan taklif qilinadigan sodda arifmetik masalalarni ham kuzatishimiz mumkin.

Ko‘p yashirin, ishorali va tugallanmagan xabarlar adib qahramonlarining o‘zaro dialoglariga joylashtirilgan.

Xeminguey aysberg usuli orqali o‘quvchini mushohada qilishga undagan. U asl haqiqatni, asl tub ma‘noni sodda va ravon hamda qisqa matnlari zamiriga yashirgan. Oddiy iboralar, haqqoniy badiiy tasvirlar orqali kitobxoniga yashiringan haqiqatni yetkazib berishga harakat qilgan. Shu tilga olingan jihatlar bilan Ernest Xeminguey va Shukur Xolmirzayev ijodkor sifatida o‘xshash va yaqin hisoblanadi, deb ayta olamiz. Har ikkala yozuvchi ham o‘z kitobxoniga voqealarni sodda va ravon tilda hikoya qiladi. Har ikkalasi ham o‘z kitobxonini aqliy mushohada qilishga undaydi, unga yashiringan katta ma‘noni tushunib olishiga ishora qiladi, ramzlar, turli tasviriy vositalar orqali yordam beradi.

Xemingueyning ijodini kuzatar ekanmiz, uning asarlari o‘quvchini o‘yga cho‘mdirishini, uning ruhini tarbiyalashini, uni haqiqatgo‘y, vatanparvar bo‘lishga undashining guvohi bo‘lamiz. U kitobxonni har doim kuchli bo‘lishga, hech nimadan qo‘rqmaslikka, haqiqat uchun kurashishga, irodali bo‘lishga chorlaydi. Uning ijodida, ayniqsa, insonning ichki dunyosi, ma‘naviyati mavzulari uning barcha asarlarida turli jihatlar yoritilgan holda uchraydi. Ammo uning “Chol va dengiz” qissasi insonning ichki olami yuksak mahorat bilan tasvirlanganligi uchun boshqa asarlaridan ajralib turadi. Unda adib bosh qahramon Santyagoning egilmas sabr-matonati timsolida insoniyatning kuchli irodasini tasvirlaydi.

³³ Hemingway E. Introduction. Men at War. – New York: Bramhal House, 1942. – P. 19.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobi **“Dengizlar va chollar obrazlari talqinida g‘oyaviy mushtaraklik va o‘ziga xoslik” deb nomlanib**, qissa va hikoyada dengizlar foni hamda Dengiz timsolining badiiy tasviri o‘rganib chiqilgan. Dengiz – inson qalbi timsoli sifatida har ikkala yozuvchining asarlarida tasvirlangan. Ikkala asardagi bu mushtarak jihat qiyosiy adabiyotshunoslikda ahamiyatlidir. Shukur Xolmirzayevning “Ko‘k dengiz” hikoyasida dengizning aynan “ko‘k” rangda talqin qilinishi sabablari tarixiy-etimologik jihatdan tadqiqotimizning shu bobida izohlab berilgan. Bu rang turkiy xalqlar turmush tarzida muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ko‘k – muqaddas rang, muqaddas osmon ramzi, turkiy elatlarning bayroqlari bo‘yalgan ramziy rang. Ko‘k rangni ko‘hna turkiy millatlar, birinchi navbatda, osmon bilan bog‘lashgan. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, “ko‘k” so‘zi bilan dastlab bugungi moviyga yaqinroq osmon rangi ifodalangan. Keyinchalik uning qo‘llanilish doirasi kengayib, to‘q ko‘kni ham, boshqa tusalarni ham, hatto yashilni (tabiatning rangini) ham anglata boshlagan. Turkiy xalqlar mifologiyasida ko‘k rang muhim o‘rin tutgan. Xususan, marosimlarda, folklor asarlarida ko‘k rangning muqaddas rang sifatida ulug‘langanligini kuzatamiz. Ko‘k rang, avvalo, osmon rangi bo‘lganligi uchun turkiy xalqlar uni Tangri rangi sifatida e‘zozlashgan. O‘g‘uz qabilalarining ulug‘ ajdod sifatida ko‘k bo‘riga e‘tiqod bilan qarashganligi fikrimizni tasdiqlaydi. “Kultegin” bitigida ham ko‘k rangning tilga olinishi ana shu tasavvurlarga tayanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Shukur Xolmirzayev aynan ko‘k rangni bejizga tanlamagan, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ko‘k dengiz Umrzoq akaning Ko‘k tangriga itoatining ramzi bo‘libgina qolmay, balki go‘yo uning ota-bobolari ruhining shu ko‘k dengizga yo‘g‘rilib ketganini, ko‘k dengiz timsolida uning ajdodlari hamon hayot ekanligini ham tasvirleydi. Ko‘k dengiz uning xalqining dengizi, u uchun qadrlig bo‘lgan qadimgi urf-odatlar va an‘analarning ramzi go‘yo. Bosh qahramonning ko‘k dengizni izlashida uning xalqiga bo‘lgan kuyinchaklik, ajdodlar ruhiga bo‘lgan hurmat aks etadi.

Yuqoridagilarni Xemingueyning “Chol va dengiz” hikoyasi bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, ko‘p mushtarakliklarning guvohi bo‘lamiz. Eng avvalo, shuni ta‘kidlash kerakki, Xemingueyning deyarli barcha asarlarida ramzlar juda keng qo‘llaniladi. Xeminguey qahramonlarining mavjudligida ramzlar hukmronlik qiladi. Yozuvchi obrazlari tasviriyligini oshirishda badiiy ramzlardan unumli foydalanadi.

“Chol va dengiz” misolida qiyoslaydigan bo‘lsak, Xeminguey bejizga dengizga murojaat qilmaydi. Uning hikoyasida dengiz inson ichki kechinmalari, tug‘yonlari, bir so‘z bilan aytganda, insonning ichki ruhiy olami timsoli hisoblanadi. Dengiz naqadar keng va uning tubida hayot qanchalik qaynaydi, u gohida sokin, gohida jo‘shqin, inson ruhiyati kabi. Dengiz foni asosida bosh qahramon Santyago yirtqich bilan olishadi. Dengizda uning matonati, sabri sinaladi, inson ruhiyati yirtqich baliq timsolidagi hayot qiyinchiliklari chig‘irig‘ida charxlangani singari. Dengiz bosh qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy olami ramzidir. Xemingueyning “dengiz”i bosh qahramon Santyagoning butun bir olamda yolg‘izligini ifodalashda yordamchi tasvir

vositasidir. Bundan tashqari, asardagi deyarli barcha voqea-hodisalar dengizda kechadi. Ayni paytda dengiz – bu zamin ham va unda Santyago yolg‘iz, o‘zi hayot uchun kurashishga mahkum. Chol dengizda qiyinchiliklarga duch keladi, dengizdan esa hech qanday yordam yo‘q.

Shuningdek, *“Santyago va Umrzoq aka obrazlari badiiy-estetik ideal sifatida”* ushbu bobning ikkinchi faslida tahlil qilingan. Santyago ham, Umrzoq aka ham, o‘z maqsadiga intilar ekan, e‘tiqodi va hayotiy qarashlariga sodiq qoladi. O‘zining ichki “men”iga sodiq qoladi. Ruhan sinmaydi. Aslida ham hayot mashaqqatlariga tik turib, ularni yengib o‘tishning siri shu mustahkam sabr-matonatda hisoblanadi. Qat‘iyat Santyagoga hayotidagi muhim qarorlarni qabul qilishga va ularni amalga oshirishga yordam beradi. Qolaversa, Santyagoning sayohati davomida uchragan tabiat manzaralarida, dengiz yirtqichlari bilan kechgan tajribalari, mashaqqatlari orqali tasvirlangan badiiy-estetik ideal insonlarni ruhlantiradi, kurashuvchan, qo‘rqmas qilib tarbiyalaydi. Bu fazilatlarining barchasi muallif E.Xeminguey tomonidan batafsil tasvirlangan.

Umrzoq akaning obrazini oladigan bo‘lsak ham, uning timsolida insonning sinmas ichki olami kuchining muhim ahamiyatining namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Bosh qahramon talqinida Sh.Xolmirzayev sabr-matonat, kuchli iroda butun boshli elat yo‘qolib ketsa-da, ertangi kunidan umidni uzmaslikka, millatga, qadriyatlarga sodiqlikni saqlashga yordam beradi, degan badiiy-estetik g‘oyani ilgari suradi.

Santyago o‘zining keksaligini va yolg‘izligini his qiladi, uning fikricha, bu uning yoshida muqarrar holatdir. Shu bilan birga, u “dengizdagi odam hech qachon yolg‘iz qolmaydi” deb ishonadi:

“Chol olis-olislariga boqib, endi o‘zining naqadar yop-yolg‘iz ekanligini tushundi. Ammo bu tubsiz sim-siyoda sinib akslangan rangin quyosh nurlari, pastga ketgan tarang chilvir va dengiz sathining ajabtovur to‘lg‘oqlarini ko‘rib turardi. Chol oldinga qarab, osmon betida yaqqol ko‘zga tashlanib uchgan yovvoyi o‘rdaklar to‘dasini ko‘rdi; ana to‘da xiralanib yoyildi, keyin yana avvalgidan ham tiniq bo‘lib ko‘zga tashlanadi va chol dengizda kishi hech qachon yolg‘iz o‘zigina qolmasligini tushundi”³⁴.

Bu ishonch uning matonatiga kuch bag‘ishlaydi. Umrzoq aka Santyagoga juda o‘xshaydi. Umrzoq ham irodani, umidni dengizlardan oladi, ko‘k dengizlar unga yashashga, hayot uchun kurashishga kuch beradi. U xuddi Santyago kabi o‘zini dengiz bilan birdamligini his qiladi, o‘zining yolg‘izligini dengiz bilan aritishga urinadi. Uning eng yaqini, ajdodlari, urf-odatlar haqidagi xotiralar bilan hamohang bo‘lib tutashib ketgan shu dengizdir.

Santyago asar so‘nggida butun baliqni olib kelolmaydi va bu yerda insonning g‘alabasi moddiyat bilan bog‘liq bo‘lmasligi kerakligi haqidagi falsafa yashiringan, Xeminguey hayotda asosiysi o‘z ustidan g‘alaba qozonish va har bir kishi, o‘z oldiga maqsad qo‘ygan holda, keksa Santyago kabi jasoratga erisha olishi kerak, deb hisoblaydi. Inson g‘alabasi faqat moddiyat

³⁴ Xeminguey E. Chol va dengiz (qissa). Ibrohim G‘ofurov tarjimasini. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1986. – B. 19.

bilan o'lganmaydi. Inson xilqatida shunday bir buyuk kuch borki, uni moddiyat o'lchab berolmaydi va aksincha, u moddiyatlarni boshqaradi. Bu uning ummonlardan ham cheksiz va boy bo'lgan bir olami – insonning ruhiy olamidir.

Umrzoq ham hikoya so'ngida qayg'uga cho'madi, ko'rmoqchi bo'lgan ko'k dengizi u kutgandek bo'lib chiqmaydi, ammo u taslim bo'lmaydi. Irodasini ko'rsatib, o'zida qayta umidni uyg'otib boshqa ko'k dengiz tomon talpinadi. Uning so'nmas umidi ham, kuchli matonati ham mana shunda. Kelajakka bo'lgan ishonchi uning g'alabasidir.

Uchinchi faslni esa *“Asarlardagi bosh g'oyaviy konseptning ifodasi”* deb sarlavhalaganmiz va asarlarda *“Insonni jismonan yo'q qilish mumkin, ammo ma'naviy qudratini yengib bo'lmaydi”* (E.Xeminguey) g'oyaviy konsepti ifodasi unda yoritilgan. Bu tadqiqotimiz o'rganish obyektlari bo'lgan har ikkala asarda ham kitobxonga yetkazilishi maqsad qilingan bosh g'oyadir. G'arb adabiyoti namunasi *“Chol va dengiz”*da ham, Sharq adabiyoti durdonasi *“Ko'k dengiz”*da ham insonning ma'naviy dunyosi qudratining qanchalik cheksiz va yengib bo'lmasligi yoritilgan.

Cholning baliq bilan kurashi uning g'alabasi bilan tugaydi, lekin uning o'ljasiga akulalar hujum qilishadi. Chol bor kuchi bilan ular bilan kurashadi, taslim bo'lishni istamaydi. Shunda chol hikoyaning butun ma'nosini o'zida mujassam etgan eng muhim so'zlarni aytadi: *“... inson mag'lub bo'lish uchun yaratilmagan ... Insonni yo'q qilish mumkin, lekin uni yengib bo'lmaydi”*. Bu so'zlar bilan Xeminguey asarining asosiy g'oyasini ta'riflash mumkin³⁵.

“Chol va dengiz” shunchaki odatiy mavzulardagi hikoya emas, balki insonni ulug'laydigan, uning jasorati, matonatini madh etuvchi qissadir. Asar syujeti bir qarashda juda oddiy. Keksa kubalik baliqchi Santyago dengizda baliq ovlashga yo'l oladi. Sakson to'rt kunlik o'ljani izlash muvaffaqiyatsiz yakunlanganidan so'ng, u ulkan baliqqa duch keladi. U shunchalik katta va kuchliki, ilgakni yutib, cholning qayig'ini o'zi bilan birga sudrab, uzoq dengizga suzib ketadi. Baliqchi bilan bahaybat baliq o'rtasidagi kurash uch kun-u uch kecha davom etadi. Oxir-oqibat, Santyago g'alaba qozonadi, lekin yirtqich akulalar uning o'ljasini yutib yuborishadi. Ko'p odamlarni boqishi mumkin bo'lgan baliq o'rniga, u faqat uning skeletini qirg'oqqa olib keladi.

Qissa haqiqatan ham ajoyib asar. U ko'plab madaniyat arboblarni yangi asarlar, xususan, badiiy o'xshashliklar yaratishga ilhomlantira olgandi.

*“Urushdan keyingi yillarda, – deb ta'kidlaydi Y.Zasurskiy, – bu kitob insoniyatga, o'z kuchiga ishonch g'oyasi bilan sug'orilgan hamda Amerikaning so'nggi yigirma yillik madaniy hayotini egallab olgan tanazzul, pessimizm va ishonchsizlik ruhidagi adabiyotiga qarshi turadigan insonparvarlik asari sifatida alohida ajralib turadi.”*³⁶

³⁵Грибанов Б. Человека победить нельзя (О Хемингуэе) Хемингуэй Э. Фиеста (И восходит солнце). Прощай, оружие! Старик и море. Рассказы. – М., 1988.

³⁶Засурский Я.Н. Американская литература XX века. 2-е изд. / Я.Н. Засурский – М.: Изд-во МГУ, 1984. – С. 348–349; Shu muallif. Подтексты Эрнеста Хэмингуэя / Я.Н. Засурский // Хэмингуэй Э. Сочинения. – М., 2000. – С. 337–358; Shu muallif. Хемингуэй и журналистика / Я.Н. Засурский // Хемингуэй Э. Репортажи. – М.: Сов. писатель, 1969. – С. 166–170.

Inson hayot soʻqmoqlarida uchraydigan qiyinchiliklarga tik turib bardosh bera olishi va gʻalabaga intilishi kerak, xatolaridan saboq olib, yanada irodli boʻlib oʻzining kuchini toblashga urinishi kerak. Baʼzan yengilsa ham, umidini uzmasdan bor matonatini va kuchini jamlab, oʻz gʻalabasi tomon intilishi kerak. Zero, insonni ruhan sindirishga hech kimning haqqi ham yoʻq. U jismonan chekinsa ham, uni ruhan sindirib boʻlmaydi – agar uning oʻzi taslim boʻlmasagina. Inson magʻlubiyat uchun yaratilmagan. Bu gʻoya ikkala asarda ham, “Chol va dengiz”da ham, “Koʻk dengiz”da ham birlamchi gʻoya hisoblanadi va ikkala asardagi chollarning obrazida ham buni kuzatishimiz mumkin.

“Qissa va hikoyada badiiy til xususiyatlari qiyosiy tahlili” deb nomlanuvchi uchinchi bobda har ikkala asarning bosh gʻoya va qahramonlar ichki kechinmalari tasvirining til xususiyatlari tadqiq qilingan. Dastlab “Chol va dengiz” qissasida adabiy qahramon ichki monologining til xususiyatlari koʻrib chiqilgan. Xeminguey qissada kitobxoniga tushunarli boʻlgan tilda Kuba hayoti, baliq ovi, hayot va oʻlim oʻrtasidagi kurash kabilarni tasvirlashga harakat qiladi. Xeminguey yozuvchining yutugʻini hammaga tushunarli tilda, aniq yozishda, deb biladi. Uning tamoyili – “Faqatgina oʻzing yaxshi oʻrgangan, yaxshi biladigan narsalar haqida yozish”, “yozganda ham samimiy va rost yozish” hamda “tasvirlangan holat inson qalbini oʻrtab yuborsin, voqelikni baholashiga yordam bersin, oʻquvchi boshidan kechirgan voqelikning bir qismiga aylanib qolsin”³⁷, degan hammaga tushunarli va sodda soʻzlarda ifodalangan.

